

PRIMQUL QODIROVNING "AVLODLAR DOVONI" ASARIDA QO'LLANGAN ANTROPONIMLARNING ASARDA TUTGAN O'RNI

Osiyo Texnologiyalar Universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti

1-bosqich magistranti Sottorova Nilufar Tura qizi

nilufarsottorova94@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqola Primqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" romanida antroponimlarning (shaxs ismlari) badiiy -estetik vazifalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Maqolada antroponimlarning tarixiy shaxsiyatni aks ettirish, qahramon xarakterini ochish, ijtimoiy-siyosiy muhitni tasvirlash, syujet rivojida tutgan o'rni va badiiy obraz yaratishdagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Asarda ismlarning qo'llanilishi orqali tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlari, qahramonlarning ichki dunyosi, o'zaro munosabatlari yoritiladi. Maqola "Avlodlar dovoni" romanining o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу художественно-эстетических функций антропонимов (личных имён) в романе Примкула Кодирова «Авлodлар дово́ни».

В статье рассматриваются роль антропонимов в отражении исторической личности, раскрытии характера героя, описании социально-политической обстановки, их значение в развитии сюжета и создании художественного образа. Через использование имён в произведении отражаются особенности исторической эпохи, внутренний мир героев и их взаимоотношения.

Статья способствует более глубокому пониманию места романа «Авлodлар дово́ни» в узбекской литературе.

Kirish. Primqul Qodirov o'zining "Avlodlar dovoni" romanida Zahiriddin Muhammad Bobur hayotini epik ko'lamda tasvirlash orqali o'zbek adabiyotida tarixiy roman janrining yuksak namunalaridan birini yaratdi. Asarda tarixiy shaxslar, voqealar va urf-odatlar badiiy talqin etilgan bo'lib antroponimlar (kishi ismlari) muhim badiiy-estetik vazifalarni bajaradi. Ushbu maqola "Avlodlar dovoni" asarida qo'llanilgan antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning asar g'oyasini ochishdagi qahramonlar xarakterini yaratishdagi va tarixiy muhitni tasvirlashdagi rolini tahlil qilishga bag'ishlangan.

Asosiy qism. Asarda qo'llanilgan har bir ism, avvalo, tarixiy shaxsga tegishli bo'lib, o'quvchini o'sha davr muhitiga olib kiradi. Bobur, Humoyun, Xonzodabegim, Nizom kabi ismlar o'quvchiga XVI asr Markaziy Osiyo va Hindiston tarixini yodga soladi. Bu ismlar nafaqat tarixiy fakti, balki o'sha davrning siyosiy kurashlari, madaniy yuksalishi va ijtimoiy ziddiyatlarini ham o'zida mujassam etadi. Yozuvchi

tarixiy shaxslarning ismlarini qo'llash orqali asarning ishonchliligini ta'minlaydi va o'quvchida tarixga hurmat hissini uyg'otadi.

Asarda turli tabaqa vakillarining ismlari orqali o'sha davrdagi ijtimoiy tuzum, urf-odatlar va an'analar aks etadi. Ismlar nafaqat shaxsni balki uning mansub bo'lgan ijtimoiy guruhini ham ifodalaydi. Masalan, "xon", "sulton", "mirzo" kabi unvonlar bilan birga kelgan ismlar qahramonning yuqori tabaqaga mansubligini ko'rsatadi. Oddiy xalq vakillarining ismlari esa ularning ijtimoiy kelib chiqishi va hayot tarzi haqida ma'lumot beradi.

Quyida asarda keltirilgan ba'zi ismlarning ma'nolari bilan tanishamiz.

1. Zahiriddin Muhammad Bobur.

Zahiriddin arabcha "dinning ko'rinishi", "dinni qo'llab quvvatlovchi" ma'nolarini anglatadi. Bu ism Boburning diniy e'tiqodi va islom diniga hurmati baland bo'lgan shaxs ekanligini ko'rsatadi.

Muhammad. Islom payg'ambari Muhammad (s.a.v) ning ismi bo'lib, musulmon dunyosida keng tarqalgan va hurmat bilan tilga olinadigan ism.

Bobur turkcha "yo'lbars", "sher" ma'nokarini anglatadi. Bu ism uning kuchli, shijoatli va g'olib shaxs ekanligini ifodalaydi.

Tarixiy manbalarga ko'ra Bobur o'zining harbiy mahorati va jasurligi bilan mashhur bo'lgan.

Humoyun forscha "baxtli", "farovon", "omadli" ma'nolarini anglatadi. Boburning o'g'li Humoyunning bu ismga ega bo'lishi unga yaxshi tilaklar bildirish, kelajakda muvaffaqiyatlar tilash ma'nosida qo'yilgan. Biroq, Humoyunning hayoti siyosiy kurashlar va omadsizliklar bilan to'la bo'lgan.

Asardagi Nizom obrazi to'qima obraz hisoblanadi. Nizom ismining ma'nosi:

Nizom arab tilidan olingan bo'lib "tartib", "qoida" "intizom" "tuzum" kabi ma'nolarni anglatadi. Shuningdek, "munosabat", "uyg'unlik" ma'nolarini ham beradi. Bu ism odatda tartibli, intizomli va qoidalarga rioya qiladigan shaxsga ishora sifatida qo'yiladi.

Hamidabonu ismi ikki qismdan iborat.

Hamid arabcha "maqtovga sazovor", "hamd aytuvchi", "shukr qiluvchi" ma'nolarini anglatadi.

Bonu forscha so'z bo'lib "xonim", "ayol", "malika" ma'nolarini bildiradi.

Shunday qilib, Hamidabonu ismining umumiy ma'nosi "maqtovga sazovor xonim", "shukr qiluvchi ayol" yoki "olijanob ayol" kabi ma'noalarni anglatadi. Bu ism odatda go'zal axloqqa ega, maqtovga loyiq bo'lgan ayollarga nisbatan ishlatiladi.

Ushbu antroponimlarning kelib chiqishi va ma'nolari asardagi qahramonlarning xarakterlari, taqdiri va tarixiy o'rni bn bog'liq holda yoritiladi.

Xulosa. Primqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" asarida antroponimlar nafaqat

shaxsni belgilovchi vosita balki, tarixiy davrni, ijtimoiy muhitni va qahramonlarning badiiy obrazini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi ismlarni mahorat bilan qo'llash orqali asarning badiiy qiymatini oshiradi va o'quvchiga tarixiy voqealarni yanada chuqurroq his qilish imkoniyatini beradi. Antroponimlarning asarda tutgan o'rni "Avlodlar dovoni" romanining o'zbek adabiyotida tutkan o'rnini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev Y. Badiiy asar doirasi va obraz. Toshkent: O'qituvchi, 2018. 28-b.
2. Qodirov I. Avlodlar dovoni. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
3. Rahimjonov S. O'zbek tilida antroponimika masalalari. Toshkent: Universitet, 2010. 76-b.
4. Zohiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: Fan nashriyoti, 2019. 98-b.